

**SHIFOBAXSH BO`YOQDOR RO`YAN (RUBIA TINCTORUM L.)
O`SIMLIGINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATI VA KO`PAYTIRISH
USULLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10150261>

Xusniddinova Azizaxon Ravshan qizi

*Toshkent Farmatsevtika Instituti, sanoat farmatsiyasi fakulteti,
sanoat farmatsiya yo`nalishi 207 A guruh talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Bo`yoqdor ro`yan o`simligining dorivor xususiyatlari va etishtirish usullari haqida so`z boradi. Bo`yoqdor ro`yan o`simligining vatani O`rta yer dengiz mamlakatlari hisoblanadi. Tabiiy holda sharoitimizda o`sadi. Asosan ariq bo`ylarida, butalar orasida, kanallar bo`yida, dalalarda va bog`larda o`sadi. Asosan urug`idan va ildizpoya qalamchalaridan ko`paytiriladi. Tuproq harorati 10-12°C bo`lganda mart oylarining o`rtalarida gektariga 13-15 kg urug` sarflanadi. Urug`ni ekish chuqurligi 4-5 sm dan kam bo`lmasligi lozim.

Kalit so`zlar

dorivor o`simlik, yetishtirish, farmatsevtika, xomashyo, gul, meva, ko`paytirish, ildizpoya, harorat, o`g`it, urug`.

Dorivor o`simliklarni yetishtirish texnologiyasi qishloq xo`jaligi sohalarining asosiy yo`nalishlaridan biri hisoblanadi. Dunyo miqyosida farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50 foizi dorivor o`simliklar xomashyosidan tayyorlanmoqda. Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Moldova, Misr Arab Respublikasi va bir qator mamlakatlarda dorivor o`simliklarni yetishtirish bilan shug`ullanish birmuncha yaxshi yo`lga qo`yilgan. Mustaqillikka erishilgandan so`ng O`zbekiston Respublikasining farmatsevtika sanoati tezlik bilan rivojlana boshladi. Hozirgi vaqtda bunday korxonalarining soni 70 tadan ortiqdir.

Dunyo bo`yicha dorivor o`simliklarning 10-12 ming turi mavjud bo`lib, ularning 1000 dan ortiq o`simlik turlarining kimyoviy, farmokologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan. O`zbekistonda dorivor o`simliklarning 577 turi mavjud. Shulardan hozirgi vaqtda 250 turi ilmiy tabobatda keng ishlatil kelinmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda farmatsevtika sanoatini jadallik bilan rivojlanishi bunday korxonalarining dorivor o`simliklar xomashyosiga bo`lgan

talabni keskin ortishiga sabab bo`lmoqda. Prezidentimizning 2020 yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o`svuchi dorivor o`simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish choratadbirlari to`g`risida"gi PQ-4670-sonli qarori va 2020 yilning 11-noyabrdagi "Dorivor o`simliklarni etishtirish va qayta ishlash, ularning urug`chiligini yo`lga qo`yishni rivojlantirish bo`yicha ilmiy tadqiqotlar ko`lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to`g`risida"gi PQ-4901-sonli qarorlarida farmatsevtika sanoatida keng qo`llaniladigan dorivor o`simliklarni etishtirishga katta e`tibor qaratilganligi bildirilgan.

Shuni ta`kidlash lozimki, tabiiy holda o`svuchi dorivor o`simliklar zaxiralarining chegaralanganligi tufayli farmatsevtika sanoati korxonalarining dorivor o`simliklar xomashyosiga bo`lgan talabini, asosan, dorivor o`simliklar o`stirish orqaligina qondirish mumkin.

Hozirgi kunda farmatsevtika sanoatida o`z o`rniga ega dorivor o`simliklardan biri shubhasiz bu Bo`yoqdor ro`yan (*Rubia tinctorum* L.) dorivor o`simligi. Bu o`simlik ro`yandoshlar (*Rubicaeae*) oilasiga mansub bo`lib, ko`p yillik, balandligi 30-150 sm gacha bo`lgan o`t o`simlik hisoblanadi. Vatani O`rta yer dengiz mamlakatlari. Tabiiy holda Ukraina, Moldova, Rossiyaning evropa qismining janubida, janubisharqida, Kavkazda (Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston, Dog`istonda) va O`rta Osiyoda va uchraydi. Asosan ariq bo`ylarida, butalar orasida, kanallar bo`yida, dalalarda va bog`larda o`sadi. Ro`yan plantatsiyalarda o`stiriladi.

Mahsulot asosan Dog`istonda, Ozarbayjonning shimoli-sharqiy qismida va Chechen-Ingushetiyada tayyorlanadi. Poyasi bir nechta bo`lib, to`rt qirrali, bo`g`inli va sershox, yanada poyasi ilmoqli dag`al tuklar bilan qoplangan. Bargi lantsetsimontuxumsimon, yaltiroq, pastki tomonidagi yo`g`on tomirlari ilmoqli dag`al tuklar bilan qoplangan, juda ham qisqa bandi bilan poyada 4-6 tadan to`p-to`p bo`lib joylashgan. Ildizpoyasi uzun, sudralib o`svuchi, shoxlangan, tsilindsimon, yo`g`on, bo`g`inli, ko`p boshli. Gullari mayda, yashil-sariq rangli, barg qo`ltig`idan o`sib chiqqan yarim soyabonga to`planib, ro`vaksimon gulto`plamini tashkil etadi. Asosan iyun-avgust oylarida gullaydi va mevasi avgust-sentyabr oylarida pishib etiladi. Mevasi 1-2 urug`li, sharsimon, oldin qizil, keyinchalik qora rangga aylanuvchi sershira ho`l meva.

Tayyor mahsulot ildizpoya va ildiz bo`lakchalaridan iborat. Ildizpoya bo`lakchalarining yo`g`onligi 2-18 mm, ustki tomoni qizg`ish qo`ng`ir rangga bo`yalgan. Uni ko`ndalangiga kesganda po`stloq qavati qizil-ko`ng`ir, yog`och qismi esa qizil rangda ko`rinadi. Mahsulotning o`ziga xos kuchsiz hidi, oldin

shirinroq, keyin bir oz burishtiruvchi va achchiqroq mazasi bor. Ildizpoya suvni qo'ng'ir-qizil rangga bo'yaydi. Mahsulot namligi 13%, umumiy kuli 10%, ro'yanning boshqa qismlari (poya, barg va boshqalar) 1,5%, organik aralashmalar 1% va mineral aralashmalar 1% dan ko'p, mahsulot tarkibidagi antraglikozidlar (glikozid hoida birlashganlar) miqdori 3% dan kam bo'lmasligi kerak.

Bo'yoqdor ro'yanni o'stirishda avval ajratilgan dalalar erta kuzda shudgordan oldin har gektar erga 15-20 tonna organik o'g'itlar, superfosfat berib 27-30 sm chuqurlikda haydaladi. Agar o'simlik yog'ingarchilik kam bo'lgan avtomorf tuproqlarda ekilsa yer haydash bilan birga gektariga 20 kg azot va kaliy o'g'itini berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ro'yan urug'idan va ildizpoya qalamchalaridan ham ko'payadi. Ekishdan oldin urug'ni stratifikatsiya qilmasa ham bo'ladi. Erta bahorda haydalgan erlar borona, mola va kul'tivatsiya qilinadi. Tuproqning harorati 10-12°C bo'lganda mart oylarining o'rtalarida gektariga 13-15 kg urug' sarflanadi. Uning ekilish chuqurligi 4-5 sm dan kam bo'lmasligi lozim. Urug'ning unuvchanligi 75-80% dan kam bo'lmasligi kerak. Tuproqning harorati mo'tadil va namlik etarli bo'lsa ekilgan urug'lar 10-12 kunda unib chiqadi. Agar ildizpoya qalamchalardan ko'paytiriladigan bo'lsa uning unuvchanlik darajasi 80-90% dan kam bo'lmasligi kerak. Ildizpoyalar erta bahorda 8-10 sm chuqurlikda ekilishi lozim. Gektariga o'rtacha 10-12 tsentner ildizpoya sarflanadi. O'simlikning zichligi 1 metrda 10-15 dona. Urug' va qalamcha qator oralari 60 sm dan qilib ekilsa, o'simlik ikkinchi va keyingi yillarda ildizlari yaxshi rivojlanib tuproq yuzasini butunlay qoplanishga sharoit yaratiladi.

Ro'yan o'simligi birinchi yili 7-8 marta sug'oriladi, keyingi yillarda sug'orish soni kamaytiriladi. Birinchi yili o'simlik oralari yumshatiladi, begona o'tlardan tozalanadi.

Birinchi o'g'itlash may va iyun oylarida gektariga 30 kg azot, 20 kg kaliy o'g'iti berish bilan amalga oshiriladi. Ikkinchi oziqlantirish avgust oylarida 30 kg azot va 20 kg superfosfat o'g'iti berish bilan tamomlanadi. O'simlikni oziqlantirish sug'orishdan oldin amalga oshiriladi. Bo'yoqdor ro'yanning ikkinchi va uchinchi yillari, dastlabki mevalari ko'ng'ir tusga kirganda ularning to'qilib ketishiga yo'l qo'ymasdan yig'ib olinadi. Ildiz va ildizpoyasini kech kuzda yoki erta bahorda plug bilan erni 30-35 sm ag'darib tuproqdan tozalab, suvda yuvib va 45-50°C da ildizini sushilkada quritib olinadi.

Urug'lari qo'lda yoki mexanizmlarda yig'ib olinadi. Har gektar erdan o'rtacha 80-100 kg urug' va 13-14 tsentner quruq ildiz yig'ib olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov O`., Ergashev A., Abzalov A., Yulchieva M. Dorivor o`simliklar etishtirish texnologiyasi va ekologiyasi. Toshkent, 2009. B-74-77.
2. Karimov B., Shomaxmudov A. Xalq tabobati va ilmi tibda qo`llaniladigan shifobaxsh o`simliklar. Toshkent, Ibn Sino nashriyoti, 1993. B-320-322.
3. Xolmatov X.X., Qosimov A.I., Dorivor o`simliklar. Toshkent Ibn Sino nashriyoti, 1994. B-368-371.
4. Pratov O`., Shermatov G`., O`simliklarni muhofaza qilish – umumxalq ishi. Toshkent, Fan nashriyoti, 1991. B- 60-65.